

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALARI VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

"TASDIQLAYMAN"  
O'quv ishlari bo'yicha prorektori  
D.Xolmatov

---

“.....” ..... 2023 yil

**IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI**  
**FANINNIG O'QUV DASTURI**

**1- kurs uchun**

<b>Bilim sohasi:</b>	300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
<b>Ta'lif sohasi:</b>	310000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar
<b>Bakalavriat ta'lif yo'nalishi:</b>	60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

**Namangan-2023**



<b>Fan/modlu' kodi</b> <b>ITT26</b>	<b>O'quv yili</b> <b>2022-2023</b>	<b>Semestr</b> <b>2</b>	<b>EKTS-Kreditlar</b> <b>6</b>
<b>Fan/modul' turi</b> <b>Majburiy</b>		<b>Ta'lism tili</b> <b>O'zbek</b>	
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lism (soat)</b>
	<b>Iqtisodiy ta'limotlar tarixi</b>	<b>60</b>	<b>120</b>
<b>2</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. FANNING MAZMUNI</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarga iqtisodiy ta'limotlar tarixi to'g'risidagi bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tushunchalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini xosil qilishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yildi. Talaba:</p> <p>Iqtisodiy ta'limotlar tarixi tushunchasi va asoslari, iqtisodiy ta'limotlar manbalari, tamoyillarni va omillari, iqtisodiy g'oyalar va ijtimoiy kontseptsiyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi:</p> <p>Iqtisodiy taraqqiyotga olib kelgan g'oyalar va iqtisodiy siyosatning mazmunini; iqtisodiy rivojlanishning yuksalish va sustlashuv sabablarini bilishi vaulardan foydalana olishi:</p> <p>Talaba iqtisodiy ta'limotlarni oddiydan murakkabga tomon rivojlanish jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p> <p style="text-align: center;"><b>1-Modul. Qadimgi dunyo, feodal jamiyatni va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta'limotlari</b></p> <p><b>1-mavzu. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» faninish predmeti va o'r ganish usuli</b></p> <p>Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash tamoyillari, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, halq xo'jaligi tarixi, Ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Iqtisodiy fan tarixida maktablar va yo'nalishlar tushunchasi. Yangicha ijobjiy fikrlash, umumiy iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, fan muammolari, dogmatik va</p>	<b>Haftadagi dars soatlari</b> <b>4 soat</b>	

zamonakashlik asosida yondashishning oldini olish, iqtisodiy g'oyalarni chuqr o'zlashtirishda va talabalarni tarbiyalashda fanning ahamiyati.

## **2-mavzu. Qadimgi dunyo iqtisodiy g'oyalari**

Qadimgi Shaq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalari. Xammurapi qonunlari. Qadimgi Xindistondagi iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari «Artxashastra» traktati. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy fikrlar. Konfutsiychilar va legislarning ta'limoti. Guanь-tszi traktatlari. Ilk sotsial utopiyalar. Zardushtiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g'oyalari. Qadimgi Gretsiya ilk quidorlik jamiyatidagi iqtisodiy qarashlar. Grek polisi (shaxri) iqtisodiy g'oyalaring rivoji (miloddan avvalgi V asr). Ksenofont. Platonning iqtisodiy loyixalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yo'lidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy kontsetsiyalar. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Rim latifundiyalari muammolari. Aka- uka Grakxlar agrar isloxitining iqtisodiy asoslari. Kolonat ilg'orligining tan olinishi

## **3-mavzu. Feodal jamiyati va uning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar**

Yangi davr xususiyatlari. Quidorlik jamiyatining yemirilishi davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g'oyalari. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldunning “Kitob-ul-ibar” asaridagi iqtisodiy g'oyalari. Bozor munosabatlari to'g'risidagi fikrlar. G'arbiy Yevropadagi iqtisodiy g'oyalarning asosiy mohiyati. Krepostnoylik xususiyati, natural va tovar ishlab ishlab chiqarish xo'jalik to'g'risidagi g'oyalari. Foma Akvinskiy qarashlari. “Adolatli baho” masalasi. Foiz va rentaga munosabat. Qadimgi Rus davlatidagi iqtisodiy g'oyalari. Yermolay-Erazm qarashlari, Boylik asosi, sudxo'rlikka munosabat. “Domostroy” asarida bozorga, xo'jalik yuritish, boshqarish, savdoga munosabat. O'rta asr utopiyalari. Tomas Mor (“Utopiya”), Tommazo Kampanella (“Oftob shaxri”) asarlaridagi xayoliy sotsialistik g'oyalari. Ularning ijobjiy tomoni va xatolari.

## **4-mavzu. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalari**

Marg'inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, Forobiy asarlarida “ehtiyoj”, mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo'lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va xunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlarida ehtiyoj, mehnat taqsimoti, mehnat qurollari ahamiyati. Fozil davlat to'g'risidagi g'oya. Insonlarning ma'naviyati va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabat. Savobli ish. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridagi iqtisodiy fikrlar. Xazina (byudjet), uni to'ldirish, asrash xisob-kitob masalalari. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asari, unda raiyatning xukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiymati, savdo yo'llarining bexatarligi to'g'risidagi fikrlar. Merkantilizm va fiziokratizm g'oyalari. Yusuf Xos Xojib va Rabg'uziy g'oyalaring hozirgi davrdagi ahamiyati

## **5-mavzu. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy**

	<b>siyosat</b>
	<p>XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy axvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. “Temur tuzuklari”, undagi iqtisodiy g’oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoyshtalik; me’yoridagi soliqlar; davlat roli.</p> <p>Ulug’bekning iqtisodiy g’oyalar va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul isloxitining ahamiyati. Oltin va kumush tangalar o’rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g’oyalar. Dehqon, xunarmand mehnatining ulug’lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, xukmdorning roli. Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxitlarning mohiyati. Boburning “Boburnoma”, “Mubayyin” va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g’oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil xisobi, yagona uzunlik va og’irlik o’lchovlarining kiritilishi. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.</p>
	<b>6-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta’limotining mohiyati va ahamiyati</b>
	<p>Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g’oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret'en (Frantsiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko’rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi. Frantsiya-kol'bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.</p>

## 2-modul. Klassik maktabning iqtisodiy ta’l imotlari

### **7-mavzu. Angliya va Frantsiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi**

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart- sharoitlari va umumiylar xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Vil'yam Petty asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petty uslubi (metodi) xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniqlash. Ish xaqi, yer rentasi, yer bahosi va foiz tahlili. P'er Buagil'berning qiymat talqini, iste'mol va ayrboshlash qiymati, pulga munosabat.

Fiziokratizm iqtisodiy ta’limotining vujudga kelishi. Uning umumiylar xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» kontseptsiyasi. «Sof maxsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish xaqidagi g’oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. A. Tyurgo asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. Uning qiymat, kapital, ish xaqi va sinflar to’g’risidagi g’oyalarining ahamiyati. Fiziokratizm iqtisodiy

ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

### **8- mavzu. Klassik iqtisodiy maktabningtuda shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari**

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi. A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida. A.Smit «Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari, feodalizmga munosabat. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi. A.Smit va fiziokratlar. A.Smit uslubi. Uning mehnat taqsimoti, ayrboshlash va pul haqidagi ta'limotlari. A.Smitning qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan xissasi. Qiymatni talqin qilishdagi ziddiyatlar. Daromadlar nazariyasi, ish xaqi, foyda, yer rentasining turli xil talqinlari. Foydaning ishchilar mehnatidan chegaralanganligi haqidagi ta'limot. Ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishdagi ziddiyatlar (Smit dogmasi). Unumli va unumsiz mehnat talqini. Ilg'or iqtisodiy dasturning asoslab berilishi. A.Smit va hozirgi zamon. Bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi ta'limotlar. D.Rikardo-sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Uning «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» asaridagi asosiy iqtisodiy g'oyalar. Rikardonning Smit g'oyalariga mutanosibligi va farqlari. Qiymatning yangicha talqini, sinflar daromadi o'rtaisdagi qarama-qarshilik, erkin savdo- fritrederlik, jahon mehnat taqsimotining ilgari surilishi, ixtisoslashuv, nisbiy afzallik nazariyasi. A.Smit va D.Rikardo g'oyalarining boshqa olimlar tomonidan rivojlantirilishi.

### **3-modul. Klassik maktabga al'ternativ ta'limotlar**

#### **9-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati**

Muqobil iqtisodiy g'oyalar paydo bo'lislining tarixiy shart-sharoitlari va xarakteristikasi. Mal'tusning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish. T.Mal'tusning realizatsiya nazariyasi. J.Mill' (otasi) D. Mak-Kullox va boshqalarning asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. J.S.Mill'(ugli)ning tadqiqot predmeti va ijtimoiy islohot dasturi. F.Bastia(Frantsiya), G.Keri (AQSH)ning kontseptsiyalari. Xizmat ko'rsatish nazariyasi. N.Seniorning «tiyilish» va «sunggi soat» nazariyalari. J.B.Sey. Uning metodologiyasi, qiymatning tahlili, ishlab chiqarishning uch omili (kapital, yer, mehnat) va kapitapning qiymati unumdonligi haqidagi g'oyalar. «Sey qonuni», umumiylortiqcha ishlab chiqarish extimolining rad etilishi. Mayda tovar ishlab chiqaruvchilar g'oyalarning mohiyati. XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, mayda ishlab chiqarish imkoniyatlari, yollanma mehnat kengayishi nazariyalarning rivojlanishi. Sismondi, Prudon va Rodbertus qarashlaridagi umumiylilik, xususiylik. Sismonding iqtisodiy qarashlari. Sismondi (1773-1842) mayda ishlab chiqarishga munosabat; mehnat, qiymat va pul, ijtimoiy fanning ikki qismi: oliy siyosat va siyosiy iqtisod. Sismondi uslubiyati. kapitalizmga munosabat, milliy daromad va kapital muammosi, uchinchi shaxslar nazariyasi. Prudon va Rodbertusning iqtisodiy g'oyalari. Prudon (1809-1865) kapitalizmni isloq qilish kontseptsiyasi, qiymatning abadiy g'oyasi, belgilangan qiymat. Rodbertus (1805-1875)- qo'shimcha qiymat va taqsimot nazariyalari. Iqtisodiyotda matematik

uslublar A.O.Kurno. «Talab qonuni», talabning elastikligi. I.G.Fon Tyunen. Iqtisodiy model. Optimallashtirish. Ekonometrikaga asos solinishi. Dastlabki marjinalistik g'oyalar (chegaraviy miqdorlar).

### **10-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga muxolif - sotsialistik yo'naliш mohiyati va uning tarixiy tadbiri**

XIX asr boshlarida xayoliy sotsializm vujudga kelishining shart-sharoitlari va uning umumiylar xarakteristikasi. Sen-Simon. Uning tarixiy kontseptsiyasi. Burjuan jamiyatining tanqidi. Yangi industrial tizim loyixasi. Sen-Simonizm evolyutsiyasi. SH.Fur'enning tarixiy rivojlanish kontseptsiyasi. Fur'e kapitalizm tanqidchisi sifatida. Bulajak uyushma haqidagi ta'limot. R.Ouen. Uning amaliy faoliyati, kapitalizm tanqidi. Jamiyatni sotsialistik o'zgartirish rejali. «Mehnat pullari» va «adolatli ayrboshlash» loyixasi. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, mulk shakllarining tadqiqoti. K.Marksning «Kapital» asari, undagi asosiy g'oyalar. «Qo'shimcha qiymat nazariyasi». Xususiy mulkka munosabat. F.Engel'sning «Anti-Dyuring», «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chikishi» va boshqa asarlarida sotsialistik jamiyat iqtisodiy asoslari ta'limotining rivoji. I.Leninning «Rossiyada kapitalizmning taraqqiyoti», «Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi» va boshqa asarlardagi iqtisodiy g'oyalar. «Xarbiy kommunizm» iqtisodiy siyosatiga berilgan baho. Yangi iqtisodiy siyosat. «Oziq-ovqat solig'i to'g'risida». «Kooperatsiya to'g'risida»gi asarlari. Marks, Engel's, Lenin iqtisodiy g'oyalarining tarixiy taqdiri va davr sinovidan o'tmaganligi.

### **4-modul. XIX asr oxiri - XX asrlardagi iqtisodiy ta'limotlar.**

### **11-mavzu. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar**

Iqtisodiy ta'limotlarda neoklassik yo'naliшning shakllanishi. Marjinalizmning umumiylar rifi. Rivojlanish bosqichlari. Avstriya maktabi. K.Menger, Ye.Bem-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmet va metodlarining sub'ektiv-psixologik nuqtai-nazardan talqin qilinishi. «Sub'ektiv» va «ob'ektiv» boyliklar nazariyasi, prosent va foyda manbaining psixologik nuqtai nazardan tushuntirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Val'ras. Kembrij maktabi yoki yangi klassik (neoklassik) yo'naliш. A.Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasi, neoklassik mikroiqtisodiyotning asosi, qisqa va uzoq davrlar, narxlar va ularni shakplantirish omillari to'g'risidagi ta'limot. «Elastiklik koeffitsienti uslubi».

J.B.Klarkning iqtisodiy ta'limoti. Uning «Boylik falsafasi» va «Boylik taqsimoti» asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. «Ishlab chiqarish omilarining eng yuqori unumdorligi to'g'risidagi qonuni» Iqtisodiy jarayonlarda vaqt ahamiyatini xisobga olish. J.B.Klarkning iqtisodiy qarashlari. «Statika» va «dinamika»ning uslubiy kontseptsiyasi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori unumdorligi nazariyasi.

Lozanna maktabi. Eng yuqori naf va eng yuqori unumdorlik nazariyasining matematik jihatdan tahlili. L.Val'rasning umumiylar iqtisodiy muvozanat modeli.

	<p>Ekonometrika. V.Paretoning umumiy iqtisodiy muvozanat kontseptsiyasi.</p> <p><b>12-mavzu. Institutsionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati</b></p> <p>Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari, evolyutsiyasi. Iqtisodiy kategoriyalarning inkor etilishi. T.Veblen g'oyalari. «Bekorchi sinflar nazariyasi» asaridagi iqtisodiy g'oyalari. J.R. Kommons qarashlari. U.K.Mitchell g'oyalari. Kon'yunktur-statistik instituttsionalizm oqimi. Iqtisodiyotda prognoz masalalari tsiklik davriy o'zgarishlar nazariyalarining paydo bo'lishi. Ijtimoiy-instituttsional yo'nalish. J.K.Gel'breytning iqtisodiy qarashlari. Nomukammal bozor ta'limotlari. Chemberlen monopolistik raqobat to'g'risida. J.Robinsonning nomukammal raqobat nazariyasi Samaradorlik va adolat dilemmasi. Monetarizm va neoliberalizm evolyutsiyasi Fridmenning monetar maktabi. Xayek va Mizesning sotsialistik iqtisodga munosabati. V.Rebkening ordoliberalizmi</p> <p><b>13-mavzu. Jon Meynard Keyns ta'limoti va neokeynschilik</b></p> <p>Buyuk depressiya, iqtisodiy inqirozlar. J.M.Keyns. «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) asaridagi iqtisodiy g'oyalari. Bandlik, iste'mol va jamgarishning iqtisodiyot uchun ahamiyati. Bozor iqtisodiyotining kamchiliklari: ishsizlik va inflyatsiya. Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvining zarurligi. Aralash iqtisodiyot, makroiqtisodiy yondashuv. Pul, investitsiya, likvidlik, kapitalning eng yuqori samaradorligi, foiz stavkasi, mul'tiplikator effekti. Keynschilik va neokeynschilik. E.Xansen, S.Xarris, J. M. Klark asarlaridagi iqtisodiy g'oyalari. Frantsiyadagi keynschilik Stagnatsiya nazariyasi, dirijzm. Akselerator tushunchasi. Imperativ va indikativ rejalshtirish. Postkeynschilik. Iqtisodiy o'sish nazariyalar. Keyns g'oyalaring hozirgi davrdagi ahamiyati.</p> <p><b>14-mavzu. Neoliberalizm g'oyalarining mohiyati va ahamiyati. Nomukammal raqobat bozori nazariyalar</b></p> <p>Neoliberalizm g'oyalarining J. M. Keyns ta'limotidan farqi, umumiylilik va xususiylik. "Tungi qorovul" va "sport xakami" tushunchalari. Frayburg, Chikago, London maktablari, "Lippman kolokviumi" g'oyalari. Neoliberalizm g'oyalarining GFRda qo'llanilishi. Adenauer - Erxard rejalar. "Ordoliberalizm". Ijtimoiy bozor xo'jaligi kontseptsiyasi. Chikago monetarizm maktabi. Milton Fridmen g'oyalari. Fillips egri chizigi (ish xaqi va ishsizlik o'rtaсидagi bog'lanish). "Ishsizlikning tabiiy normasi". Mizes. Xayeklarning iqtisodiy g'oyalari ahamiyati. Monopoliyalarning shakllanishi, bozor munosabatlarining evolyutsiyasi. Mukammal bo'limgan raqobatning xususiyatlari. Erkin bozorning mukammal bo'limgan raqobat bilan bog'liqligi. Monopoliyalar o'rtaԀagi raqobat xususiyatlari. "Maxsulot differentsiatsiyasi" tushunchasining mohiyati. Tovarlar sifati va reklama ahamiyati. E. Chemberlin ("Monopolistik raqobat nazariyasi") g'oyalari. Baholanmaydigan omillar tushunchasi (savdo joyi, aloxida savdo uslubi, insoniy omillar va boshqalar). J. Robinson ("Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi") g'oyalari, monopoliyaga salbiy munosabat. Monopsoniya (xaridor monopoliyasi) tushunchasi.</p>
--	---

	<p>Samadorlik va adolat muammosi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi.</p> <p><b>15-mavzu. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari evolyutsiyasi</b></p> <p>Ishsizlik, inflyatsiya, inqiroz muammolari. P.Samuel'son, "Ekonomiks" asari, "neoklassik sintez" kontseptsiyasining mohiyati. Keyschilik, iqtisodiy taklif nazariyasi va monetarizm g'oyalari (qorishmasi). Institutsionalizm g'oyalariga e'tiborning kuchayishi. Samuel'son asarida iqtisodiy tafakkur tarixiga oid masalalarning tahlili. Iqtisodiy o'sish va adolat muammolariga munosabat. Iqtisodiy taraqqiyotning "to'rt g'ildiragi" (insoniy resurslar. tabiiy resurslar, kapital va texnologiyalar).</p> <p><b>16-mavzu. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel' mukofoti laureatlarining g'oyalari</b></p> <p>Nobel' mukofoti, iqtisodiyot bo'yicha mukofotning ta'sis etilish xususiyatlari. Laureatlarning ilmiy ishlariga tavsif. Iqtisodiy modellar bo'yicha mukofotlanganlar (Leont'ev, Kleyn, Frish, Tinbergen va boshqalar). resurslarni optimal joylashtirish (Kantarovich, Kupmans, Alle, Gurvits va boshqalar), monetarizm va pul siyosati masalalari (Fridman, Myurdal, Mandell, Merton, Xayek), iqtisodiy muvozanat masalalari (Xiks, Debre, Errou va boshqalar), iqtisodiy o'sish muammolari (Solou, Kuznets), xalqaro bozor va savdo masalalari (Olin, Krugman), assimmetrik axborotning iqtisodiyotdagi roli (Vikri, Mirrlis, Akerlof. Stiglits va boshqalar). Menejment, boshqarish va qaror qabul qilish, bashorat, prognoz muammolariga oid ishlar. Moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bo'yicha tadqiqotlar. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, kambag'allikni yengish, iqtisodiy tarix va iqtisodiy tafakkur masalalariga oid ishlar. Iqtisodiyotda o'yinlar va extimollar nazariyasi, mikro va makroiqtisodiyotga oid tadqiqotlar. Ratsional kutilmalar nazariyasi. Nobel' mukofoti laureatlari ilmiy ishlarining ahamiyati</p> <p><b>17-mavzu. Juhon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalari</b></p> <p>Xalqaro mehnat taqsimoti. Juhon xo'jaligidagi integratsiya va ixtisoslashuv. Juhon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy nazariyaning asosiy xususiyatlari. A.Smitning «mutloq afzaplilik nazariyasi». Tashki savdoda xarajatlarning roli. D.Rikardoning «nisbiy afzallik nazariyasi». Mehnat taqsimoti va mehnat unumdarligining o'mni. Solishtirma xarajat ustuvorligi. Ishlab chiqarish omillari nazariyasi. E.Xeksher-B. Olin nazariyalari.«Tovarning xayot tsikli» nazariyalari. J.Xiksning ilmiy-texnik progress bilan bog'liq iqtisodiy fikrlari. Juhonshumul iqtisodiy muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti to'g'risidagi g'oyalari. BMTning insoniy rivojlanish kontseptsiyasi, ming yillik dekparatsiasi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.</p> <p><b>5-modul. O'tish davri iqtisodiy nazariyalari.</b></p> <p><b>18-mavzu. O'tish davrining mohiyati va ahamiyati</b></p> <p>O'tish davrining mohiyati, uning ob'ektiv zarurati ("sotsialistik" deb atalgan davlatlarning bozor munosabatlari o'tishi). O'tish davrining asosiy xususiyatlari va</p>
--	--

qonuniyatlari. Iqtisodiy taraqqiyotning bosqichlari, bir tarixiy bosqichdan boshqasiga o'tish-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar Rivojlanish bosqichlarining shakllari (an'anaviy, bozor, kelajak iqtisodiyoti). Iqtisodiy tizimlarning rivoji. Ma'muriy - buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlarga o'tish xususiyatlari. Muqobil (al'ternativ) g'oyalarning mavjudligi. Eski tizim va yangi tizim elementlarining bir vaqtida yashay olish tamoyillari. "Shok terapiyasi" (revolyutsion) va evolyutsion yo'l tafsifi. Aralash iqtisodiyotning mazmuni. O'tish davrida qarama-qarshiliklarning kuchayishi, uning progressiv xarakteri. O'tish davrining tarixiyligi, shu davrdagi dastlabki iqtisodiy xolatning ahamiyati. Sharq va Garb xususiyatlari. Sharoitning yetukligi masalasi. O'tish davri qonuniyatlarining turlicha namoyon bo'lish sabablari. Yetakchi mamlakatlardagi ijobiy tajriba ahamiyati. O'tish davrining davomiyligi, klassik davlatlar (Angliya, Frantsiya, AQSH va boshqalar) tajribasi, hozirgi davrdagi o'tish xususiyatlari (Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur va boshqalar). Postsoviet davlatlarining bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlari, start sharoitlarining turli-tumanligi. Bozorga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy belgilari. Xar bir bosqichning davomiyligi masalasi. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarining bozor munosabatlariga o'tish tajribasi.

### **19-mavzu. O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davri kontseptsiyasi**

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati, oqibatlari. Bozor iqtisodiyotini munosabatlariga o'tishning ob'ektiv zaruriyati. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tishning xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida bozor munosabatlariga o'tish tamoyillarining ishlab chiqilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishga evolyutsion yo'l tutilishi sabablari. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning bosqichlari va xususiyatlari. Iqtisodiy isloxotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi. Erishilgan muvaffakiyatlar, muammo va yechimlar. Xarakatlar strategiyasida O'zbekiston iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish va modernizatsiyalash vazifalari.

#### II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi

Nº	mavzular	Soati
1-Modul. Qadimgi dunyo, feodal jamiyati va ilk kapitalizmning iqtisodiy ta'limotlari		
1	1-mavzu. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» faninish predmeti va o'rghanish usuli	2
2	2-mavzu. Qadimgi dunyo iqtisodiy g'oyalari	2
3	3-mavzu. Feodal jamiyati va uning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar	2
4	4-mavzu. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalari	1
5	5-mavzu. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat	1

	6	6-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati 2-modul. Klassik maktabning iqtisodiy ta'l imotlari	2
	7	7-mavzu. Angliya va Frantsiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi	2
	8	8- mavzu. Klassik iqtisodiy maktabningtuda shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari	2
		3-modul. Klassik maktabga alternativ ta'limotlar	
	9	9-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabga muqobil g'oyalarning mohiyati	2
	10	10-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga muxolif - sotsialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy tadbiri	2
		4-modul. XIX asr oxiri - XX asrlardagi iqtisodiy ta'limotlar.	
	11	11-mavzu. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar	1
	12	12- mavzu. Institutsionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati	1
	13	13-mavzu. Jon Meynard Keyns ta'limoti va neokeynschilik	2
	14	14-mavzu. Neoliberalizm g'oyalaring mohiyati va ahamiyati. Nomukammal raqobat bozori nazariyalar	2
	15	15-mavzu. Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari evolyutsiyasi	2
	16	16-mavzu. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlarining g'oyalari	1
	17	17-mavzu. Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalar	1
		5-modul. O'tish davri iqtisodiy nazariyalar	
	18	18-mavzu. O'tish davrining mohiyati va ahamiyati	1
	19	19-mavzu. O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davri kontseptsiyasi	1
			30 soat

### III. Amaliy mashg'ulotlar

#### 1-mavzu. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» faninish predmeti va o'r ganish usuli

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash tamoyillari, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsaфа, iqtisodiyot nazariyasi, halq xo'jaligi tarixi, Ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi. Iqtisodiy fan tarixida maktablar va yo'nalishlar tushunchasi. Yangicha ijobiy fikrlash, umumiyl iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, fan muammolari, dogmatik va zamonakashlik asosida yondashishning oldini olish, iqtisodiy g'oyalarni chuqur o'zlashtirishda va talabalarni tarbiyalashda fanning ahamiyati.

#### 2-mavzu. Qadimgi dunyo iqtisodiy g'oyalari

Qadimgi Shaq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalari. Xammurapi qonunlari. Qadimgi Xindistondagi iqtisodiy g'oyalari. Manu qonunlari «Artxashastra»

traktati. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy fikrlar. Konfutsiychilar va legislarning ta’limoti. Guanь-tszi traktatlari. Ilk sotsial utopiyalar. Zardushtiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g’oyalar. Qadimgi Gretsiya ilk quldorlik jamiyatidagi iqtisodiy qarashlar. Grek polisi (shaxri) iqtisodiy g’oyalarining rivoji (miloddan avvalgi V asr). Ksenofont. Platonning iqtisodiy loyixalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yo’lidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy kontsetsiyalar. Katon, Varron, Kolumellaning agronomik asarlarida Rim latifundiyalari muammolari. Aka- uka Grakxlar agrar isloxitining iqtisodiy asoslari. Kolonat ilg’orligining tan olinishi

### **3-mavzu. Feodal jamiyati va uning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta’limotlar**

Yangi davr xususiyatlari. Quldarlik jamiyatining yemirilishi davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g’oyalar. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldunning “Kitob-ul-ibar” asaridagi iqtisodiy g’oyalar. Bozor munosabatlari to’g’risidagi fikrlar. G’arbiy Yevropadagi iqtisodiy g’oyalarning asosiy mohiyati. Krepostnoylik xususiyati, natural va tovar ishlab ishlab chiqarish xo’jalik to’g’risidagi g’oyalar. Foma Akvinskiy qarashlari. “Adolatli baho” masalasi. Foiz va rentaga munosabat. Qadimgi Rus davlatidagi iqtisodiy g’oyalar. Yermolay-Erazm qarashlari, Boylik asosi, sudxo’rlikka munosabat. “Domostroy” asarida bozorga, xo’jalik yuritish, boshqarish, savdoga munosabat. O’rtta asr utopiyalari. Tomas Mor (“Utopiya”), Tommazo Kampanella (“Oftob shaxri”) asarlaridagi xayoliy sotsialistik g’oyalar. Ularning ijobjiy tomoni va xatolari.

### **4-mavzu. O’rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo’lgan iqtisodiy g’oyalar**

Marg’inoniyning «Hidoya» asari, undagi iqtisodiy fikrlar, iqtisodiy qonunchilik, zakot, Forobiy asarlarida “ehtiyoj”, mehnat, mehnat taqsimoti, inson omili masalalarining yoritilishi. Beruniyning asarlarida kishilik ehtiyojlarining paydo bo’lishi va uni qondirish asoslari, mehnat va xunarga munosabatlari. Ibn Sino asarlarida ehtiyoj, mehnat taqsimoti, mehnat qurollari ahamiyati. Fozil davlat to’g’risidagi g’oya. Insonlarning ma’naviyati va iqtisodiyot o’rtasidagi munosabat. Savobli ish. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asaridagi iqtisodiy fikrlar. Xazina (byudjet), uni to’ldirish, asrash xisob-kitob masalalari. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u bilig” asari, unda raiyatning xukmdorga talablari: mulk daxlsizligi, pulning qadr-qiymati, savdo yo’llarining bexatarligi to’g’risidagi fikrlar. Merkantilizm va fiziokratizm g’oyalari. Yusuf Xos Xojib va Rabg’uziy g’oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati

### **5-mavzu. Amir Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy g’oyalar va iqtisodiy siyosat**

XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy axvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. “Temur tuzuklari”, undagi iqtisodiy g’oyalar. Rivojlanish omillari: tinchlik-osoyshtalik; me’yordagi soliqlar; davlat roli.

Ulug’bekning iqtisodiy g’oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul isloxitining ahamiyati. Oltin va kumush tangalar o’rniga mis pullarining zarb qilinishi. «Fulusiya pullari». Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g’oyalar.

Dehqon, xunarmand mehnatining ulug'lanishi. Savdo, savdogar va tovlamachilarga munosabat. Olib-sotarlarning ijobiy va salbiy xizmatlari. Iqtisodiyot va davlat, xukmdorning roli. Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxoatlarning mohiyati. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin" va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Xumoyun va Akbarshox davridagi ijtimoiy-iqtisodiy fikrlar va siyosat, yangi yil xisobi, yagona uzunlik va og'irlilik o'lchovlarining kiritilishi. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.

#### **6-mavzu. Merkantilizm iqtisodiy ta'limotining mohiyati va ahamiyati**

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm, Monkret'en (Frantsiya). Merkantilizm va protektsionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-protektsionizmi. Frantsiya-kol'bertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

#### **7-mavzu. Angliya va Frantsiyada klassik (mumtoz) maktabning shakllanishi**

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiylar xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Vil'yam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati. Petti uslubi (metodi) xususiyatlari qiymatning talqini. Iste'mol va almashuv qiymatiga munosabat, muomaladagi pul miqdorini aniqlash. Ish xaqi, yer rentasi, yer bahosi va foiz tahlili. P'er Buagil'berning qiyamat talqini, iste'mol va ayrboshlash qiymati, pulga munosabat.

Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi. Uning umumiylar xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizmni tanqid. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» kontseptsiyasi. «Sof maxsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini. Kapital, sinflar, oddiy takror ishlab chiqarish xaqidagi g'oyalar. Kenening bosh asari «Iqtisodiy jadval»da ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining tahlil etilishi va uning ahamiyati. A. Tyурго asarlarida fiziokratik tizimni rivojlantirilishi. Uning qiymat, kapital, ish xaqi va sinflar to'g'risidagi g'oyalarining ahamiyati. Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining ahamiyati va tarixiy taqdiri.

#### **8- mavzu. Klassik iqtisodiy maktabningtuda shakllanishi. Adam Smit va David Rikardo iqtisodiy ta'limotlari**

